


Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 8-maydagi 03-03/1-03/6-4461-son ijrosi yuzasidan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida
amalga oshirilgan ishlar
MA'LUMOTI


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori bilan tasdiqlangan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi masalalariga bag'ishlangan muhim sanalar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar kalendar rejasining 19-bandiga muvofiq, **2025-yil 22-may kuni** respublikamizda **"Xalqaro bioxilma-xillikni asrash kuni"** nishonlanishi belgilangan.

Shu munosabat bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasida professor o'qituvchilari ishtirokida shu sanaga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi.



Tadbirda shu sanaga oid ma'lumotlarni, aynan nima uchun **"Xalqaro bioxilma-xillikni asrash kuni"** dunyo bo'ylab har yili 22-mayda nishonlanishi, bioxilma-xillik to'g'risida konvensiya, o'simlik va hayvonot dunyosini asrab avaylash bo'yicha Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari

texnologiyalari kafedrası professor o'qituvchisi Mingboy Amirovich Xalmuratov tomonidan ma'lumotlar berib o'tildi.



Tadbirda shuningdek, kafedramiz o'qituvchilari tomonidan "Xalqaro bioxilma-xillikni asrash kuni" ning mazmun mohiyati, bioxilma-xillik to'g'risida konvensiya, o'simlik va hayvonot dunyosini asrab avaylash to'g'risida Biologiya yo'nalishi talabalariga yetarlicha ma'lumotlar berildi. Tadbirda Biologiya yo'nalishi talabalari ham faol ishtirok etib, o'zlari qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.

/ Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani:



B.Iraliyev

Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari
texnologiyalari kafedrası mudiri:

M.Hamroyeva

/ Kotiba :

D. Sodiqova